IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

Joriy davrda 25 866,8 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘sish sur‘ati 2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 133,6 foizni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2 820,1 mlrd. so‘m yoki jami investisiyalar hajmining 10,9 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 161,7 foiz o‘zlashtirildi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 23 046,7 mlrd. so‘m yoki jami investisiyalar hajmining 89,1 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 130,8 foiz o‘zlashtirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalar-yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi, qo‘shimcha qiymat solig‘ini qo‘shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to‘lov amalga oshirilgan paytdan qat’iy nazar, haqiqatda o‘zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar (2023- yil yanvar-dekabr)

	mlrd. so‘m	o‘sish sur‘ati, % *da*	hajmga nisbatan, % *da*
Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar	**25 866,8**	**133,6**	**100,0**
Markazlashgan investitsiyalar:	**2 820,1**	**161,7**	**10,9**
Budjet mablag‘idan	697,1	97,8	2,7
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	-	-	-
O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo‘lgan chet el kreditlari	2 070,1	215,7	8,0
Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	52,9	74,6	0,2
Markazlashmagan investitsiyalar:	**23 046,7**	**130,8**	**89,1**
Korxona o‘z mablag‘lari	5 879,4	108,9	22,7
aholi mablag‘lari	2 205,3	101,5	8,5
to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	14 243,5	149,1	55,1
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	718,5	138,8	2,8

Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo‘yicha ulushi, % *da*
(2023- yil yanvar- dekabr)



Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo‘yicha ulushi, % *da*
(2023- yil yanvar- dekabr)



Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
(jami hajmdagi ulushi, % da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori ko‘rsatkich xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 155,2 foizga oshgan.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

Hududlar	Jami		shu jumladan: xorijiy investitsiya va kreditlar	
	mlrd. so‘m	o‘sish sur‘ati, % da	mlrd. so‘m	o‘sish sur‘ati, % da
➢ **Viloyat bo‘yicha**	**25 866,8**	**133,6**	**16 313,6**	**155,2**
shaharlar:				
➢ Navoiy	**5 289,0**	**95,3**	**3 278,8**	**121,7**
➢ Zarafshon	**3 389,7**	**127,3**	**1 566,1**	**88,4**
➢ G‘ozg‘on	**418,7**	**2,8 m.**	**293,4**	**2,8 m.**
➢ tumanlar:				
➢ Karmana	**4 242,9**	**176,6**	**2 728,0**	**280,0**
➢ Konimex	**1 082,1**	**2,0 m.**	**209,8**	**5,9 m.**
➢ Qiziltepa	**1 249,3**	**127,2**	**381,3**	**130,5**
➢ Navbahor	**705,1**	**116,7**	**199,0**	**3,0 m.**
➢ Nurota	**2 275,0**	**161,2**	**1 881,3**	**199,0**
➢ Tomdi	**5 538,5**	**153,0**	**5 359,1**	**156,9**
➢ Uchquduq	**589,7**	**2,0 m.**	**334,7**	**5,0 m.**
➢ Xatirchi	**1 086,8**	**94,0**	**82,1**	**56,2**

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sish sur‘atlari, % *da*



Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % *da*



Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	Jami	Shu jumladan, mulkchilik shakllari bo‘yicha	
		davlat	nodavlat
Jami, *mlrd. so‘m*	**25 866,8**	**1 799,7**	**24 067,1**
shu jumladan: umumiy hajmga nisbatan, % *da*	100,0	7,0	93,0
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari	14 873,7	900,1	13 973,6
qurilish-montaj ishlari	9 966,7	852,0	9 114,7
boshqa harajatlar	1026,4	47,6	978,8

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, *mlrd. so‘m*



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, % *da*



Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida Navoiy viloyati bo‘yicha mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari ulushi- 57,5 foiz, qurilish-montaj ishlari-38,5 foiz hamda boshqa xarajatlar- 4,0 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilishi: qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 1 227,3 mlrd. so‘m (jami investitsiylar hajmidagi ulushi 4,7 %), tog‘- kon sanoatida 4 365,2 mlrd. so‘m (16,9 %), qayta ishlash sanoati jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 10 512,1 mlrd. so‘m (40,6 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash 4 221,0 mlrd. so‘m (16,3 %), qurilish sohasida 1 592,0 mlrd. so‘m (6,2 %), ulgurji va chakana savdo sohasida 518,8 mlrd. so‘m (2,0 %), Professional, ilmiy va texnik faoliyat 94,7 (0,4 %), tashish va saqlash 520,9 mlrd. so‘m (2,0 %) Sog‘liqni saqlash 119,4 mlrd. so‘m (0,5 %), Turar-joy qurilish 1 214,8 mlrd. so‘m (4,7 %) hamda boshqa faoliyat turlari bo‘yicha 1 480,6 mlrd. so‘m (5,7 %) ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan, % da)



2023- yil yanvar- dekabr oylarida umumiy maydoni 688,4 ming kv.m. (2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 77,4 %) bo‘lgan 2 195 xonadonga ega bo‘lgan turar - joylar, ulardan 491,7 ming kv.m. (69,4 %) bo‘lgan 1 544 ta xonadonlar qishloq joylarda ishga tushirildi.

Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur‘atlari
(2023- yil yanvar-dekabr oylari)

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatida jami 6 719,8 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur‘ati 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,5 foizni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi va ulushi
(2023- yil yanvar- dekabr oylari)

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



Ma‘lumot uchun: *qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*

Joriy yilning yanvar- dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 407,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning yanvar- dekabr oylariga nisbatan 116,9 foiz, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 20,9 foizni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlarning ulushi va o‘sish sur‘ati, % *da*

Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % *da*



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2023-yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 48,3 foizi to‘g‘ri kelib, 2022-yil yanvar-dekabr oylari ko‘rsatkichi 1,0 punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022-yil yanvar-dekabriga nisbatan 107,3 foizni tashkil etgan holda 3 247,5 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 454,2 mlrd. so‘m yoki 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 91,7 foiz qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 6 265,6 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 108,9 foizni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % *da*





Davlat mulki **Nodavlat mulk**

Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari *(2023- yil yanvar-dekabr oylari)*

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m	Nodavlat mulk		Davlat mulk	
		mlrd. so‘m	ulushi, % da	mlrd. so‘m	ulushi, % da
Jami	**6 719,8**	**6 265,6**	**100,0**	**454,2**	**100,0**
Navoiy sh.	1 205,7	1 120,4	17,9	85,3	18,7
Zarafshon sh.	576,4	537,9	8,6	38,5	8,5
G‘azg‘on sh.	34,9	34,9	0,6	-	-
Karmana t.	684,1	639,0	10,2	45,1	9,9
Konimex t.	203,3	189,3	3,0	14,0	3,1
Qiziltepa t.	1 370,7	1 277,5	20,4	93,2	20,5
Navbahor t.	582,7	546,0	8,7	36,7	8,1
Nurota t.	902,3	841,0	13,4	61,3	13,5
Tomdi t.	328,4	297,6	4,7	30,8	6,8
Uchquduq t.	142,4	133,9	2,1	8,5	1,9
Xatirchi t.	688,9	648,1	10,4	40,8	9,0

Navoiy viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari, *% da*

2023- yil yanvar-dekabr

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	Fuqarolik obyektlarini qurilishi	Bino va inshootlarni qurilishi
4,9	15,1	80,0

2022- yil, yanvar-dekabr

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	Fuqarolik obyektlarini qurilishi	Bino va inshootlarni qurilishi
4,6	17,0	78,4

Ma‘lumot uchun: *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 21,0 foiz tashkil etib, 2022-yilning yanvar-dekabr oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 3,0 foiz punktga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2022-yilning yanvar-dekabr oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 1,7 foiz punktga kamayib, 40,6 foizni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022-yilning yanvar-dekabr oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 1,3 foiz punktga kamayib, 38,4 foizni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 24,8 foizni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar- dekabr oylariga nisbatan 7,3 foiz punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 75,2 foiz (7,3 foiz punktga ko‘paydi).



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 8,2 foiz punktga ko‘paydi va 8,9 foizni tashkil etdi. Qolgan 91,1 foizi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 8,2 foiz punktga kamaydi.



Hududlar kesimida eng yuqori hajm Qiziltepa tumaniga (1 370,7 mlrd. so‘m), Navoiy shahriga (1 205,7 mlrd. so‘m), Nurota tumaniga (902,3 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.



Hududlar kesimida eng kam hajm G‘ozg‘on shahriga (34,9 mlrd. so‘m), Uchquduq tumaniga (142,4 mlrd. so‘m) Konimex tumaniga (203,3 mlrd. so‘m), to‘g‘ri keldi.